

Badiiy Matn Tarjimasida Bilvosita Tarjima Va Bevosita Tarjimaning Ustunlik Tomonlari

Sharipova Bahora Odiljonovna¹, Ziyodullayeva Shaxnoza Shavkatovna²

Annotatsiya: Badiiy matn tarjimasida bilvosita tarjima va bevosita tarjimaning ustunlik tomonlari va bilvosita tarjimaning kamchiliklari haqida soʻz yuritilgan. Ushbu ijobiy va salbiy xususiyatlar misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: Toʻgʻridan toʻgʻri tarjima, vositachi til, asliyat, badiiy boʻyoqdorlik.

Olis va yaqin xalqlarning adabiyoti namunalarini oʻgʻirish jarayonida bevosita yoki bilvosita tarjimaga murojaat etiladi.

Tarjimashunos olim Gʻaybulla Salomov badiiy asarni qayta yaratish jarayonida amalga oshadigan uch bosqich toʻgʻrisida toʻxtalib, shunday fikrlarni bayon qiladi:

1. Asl nusxani tarjimon qanday qabul qilishi (tushunishi).
2. Asarni real, avtorning maqsad-muddaosi va uning oʻziga xos uslubini qanday talqin qilishi.
3. Soʻz sanʼati namunasini oʻz ona tilida qayta tiklashda muqobil vosita topa olishi. Badiiy tarjimani ilmiy tavsiflash shundan iboratki, bunda soʻzni soʻz bilan emas, balki maʼnoni maʼno bilan, ohangni ohang bilan, obrazni obraz bilan, yumorni yumor bilan berish muhim ahamiyatga egadir».

Badiiy tarjimaning boshqa turdagi tarjimalaridan farqi shundaki, soʻz, jumla yoki butun bir asarni toʻgʻri oʻgʻirish kifoya emas. Bunda tarjimon ham sanʼatkor boʻlishi lozim »² Haqiqatdan ham badiiy tarjimaning alohida oʻziga xosligi mavjud boʻlib, tarjima faqat soʻzni emas, asar maʼno mazmunini undagi obrazlarni shuningdek asr ruhini ham oʻzida ifodalashi lozim.

Tarjimonlar oʻzga milliy adabiyotlarda mavjud boʻlgan eng sara, katta ijtimoiy, adabiy-estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan kitoblarni oʻz tillariga agʻdarishga oshiqadilar. «Qayta yaratish bilan bogʻliq umumiy adabiy estetik jarayonning uch tomoni: tanishuvdan kelib chiqqan tarjima, tarjimadan kelib chiqqan tanishuv, hamda bularning har ikkalasidan hosil boʻlgan taʼsir birbiri bilan dialektik tarzda chambarchas bogʻliqdir»³ Bilvosita va bevosita tarjimaning badiiy –estetik ahamiyati juda katta. Bevosita tarjima toʻgʻridan-toʻgʻri asliy matn bilan ishlash natijasida yuzaga keladigan tarjimadir. Bevosita tarjima jarayonida tarjimonning asliyat tilini bilguvchi, 2tilni bilishi talab qilinadi. N.A.Dobrolyubovning «Eneida» haqidagi maqolasida bu haqda taʼkidlanadi.

1. Tanqidchi tarjima qiluvchi kishi, birinchi navbatda, shoir boʻlishi
2. Uning badiiy didi yuksak boʻlishi,
3. Ayni asarni yozgan shoirning ichki dunyosini bilmogʻi
4. Uning ijodini toʻliq his qilmogʻi kerak.
5. Klassik asarlarni tarjima qiluvchi kishi olim ham boʻlishi
6. Xalqning qadimiy turmush sharoitlarini bilishi

¹ NDPI ingliz tili va adabiyoti fakulteti, ingliz tili amaliy kursi kafedrasini oʻqituvchisi

² NDPI ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

² Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. Тошкент, 1983.

³ Саломов Ф. «Дўстлик кўприклари» Тошкент, 1979, Б. 3-6



7. O'sha davrlardagi urf-odatlarini bilmog'i
8. Ularning tilini mukammal bilmog'i darkor.
9. Har bir so'zning eng nozik ma'nolarini hatto ko'z ilg'amas bir ko'makchining ma'nosini ham yaxshi bilishi kerak.
10. Asarni qaysi tilga tarjima qilayotgan bo'lsa, o'sha tilni juda yaxshi bilishi zarur.
11. zo'rma-zo'rakilik bilan tarjima qilmaslik
12. O'z tilining butun boyligidan to'la foydalana olish
13. Bironta ham sun'iy jumлага, g'aliz iboraga yo'l qo'ymaslik
14. Asarda tasvirlangan fikrni mumkin qadar to'laroq aks ettirish
15. O'z tilida to'g'ri va chiroyligina emas, balki yengil va erkin yoza bilmog'i lozim.⁴

Bevosita, bilvosita yoki vositali tarjimada tarjimon asliyat (A) tilidan ikkinchi (B) tilga o'girilgan matn asosida o'zining (V) tiliga ag'daradi – tarjimadan tarjima yuzaga keladi. Natijada taglamadan B tildagi tarjimaga o'tgan hamda uning o'zida yuz bergan qusurlar V tilga o'tishi oqibatida tarjima sifatsizlanaveradi.

Shuning uchun bevosita tarjima eng muhim sifat mezoni hisoblanadi. Jahon adabiyotida juda ko'plab misollar keltirish mumkin.

Siseron (m.a. I asr) Esxin va Demosfen nutqlarini yunon tilidan, Simmax (m.a. II asr) Tavrotni ivrit (ibroniy) tilidan yunon tiliga, Iyeronim (IV asr) uni lotin tiliga, ancha keyin, XV asrda, G. Shteynxfel - Ezop va Bokkachchoni, A. fon Eyb - Plavtni nemis tiliga, I. dyu Belle - Ovidiyini fransuz tiliga bevosita tarjima qildilar.

«Qirol Lir»ni gruzin tiliga o'girish uchun I. Chavchavadze ingliz tilini maxsus o'rgangan. Fransuz, nemis va ingliz tillari ustasi I. Machabeli 1873 yili «Qirol Lir»ni bevosita Shekspir tilidan tarjima qildi.

Yuqori taraqqiyot bosqichida turgan xalqlarning so'z ustalari Shekspir asarlarining vosita tillar orqali tarjima qilinishini o'zlari uchun isnod deb bilganlar.

Shu tufayli doimo buyuk adibni bevosita ingliz tilidan tarjima qilish uchun kurashdilar. Hozir ruslar, ukrainlar, gruzinlar, armanlar, Boltiq bo'yiliklar dramaturg asarlarini ingliz tilidan tarjima qiladilar. M. Lozinskiy, B. Pasternak, S.

Marshak Shekspir asarlarini to'g'ridan-to'g'ri XVII asr ingliz tilidan, S.N. Ivanov Alisher Navoiy asrlarini XVI asr eski o'zbek tilidan qoyil maqom qilib o'giranlar.

Tarjimaga filologik tahlil nuqtai nazaridan yondashish xorijiy tildagi matnni teran anglash va tarjima jarayonida asl nusxa matnidagi so'z va iboralarning tagmazmunini tarjima tilida qayta yoritishda qo'l keluvchi usullardan biri hisoblanadi.

REFERENCES.

1. uz.m.wikipedia.org
2. Uilyam Shekspir "Qirol Lir" G'afur G'ulom tarjimasi .G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.-T.,-1981.-B.18.53.
3. www.TheLib.Ru Борис Пастернак "Корол Лир" .-B.9.35.
4. www.Tale Books.com. William Shakespere." King Lear".

⁴ www.wikipediya N.A.Dobrolyubovning «Eneida» haqidagi maqolasi



5. www.wikipediya N.A.Dobrolyubovning «Eneida» haqidagi maqolasi Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. Тошкент, 1983.
6. Саломов Ғ. «Дўстлик кўприклари» Тошкент, 1979, Б. 3-6

